



## O‘TKIR RESPIRATOR VIRUSLI INFEKSIYALARIDA IKKILAMCHI INFEKSIYALAR MANZARASI

**Shayqulov Hamza Shodievich**

*Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya  
kafedrasi katta o‘qituvchisi*

**Xayrilloeva Mexribon Xurshedovna**

*Davolash ishi kasb ta’limi fakulteti talabasi  
Samarkand Davlat Tibbiyot Universiteti*

**Annotatsiya.** Sovuq mavsumlar uchun xos bo‘lgan o‘tkir respirator virusli infeksiya (O‘RVI) larining kamida 5 - 10 foizi holatlarida ikkilamchi infeksiyalarning rivojlanishi kuzatilmoqda. Xususan *Staphylococcus aureus*, *Streptococcus pneumoniae*, *Haemophilus influenzae*, *Candida albicans* eng ko‘p uchramoqda. Ushbu ishda O‘RVI bilan kasallangan 174 nafar talaba va sog‘lom 30 nafar talaba burun bo‘shlig‘idan surtma olinib, mikroskopik, bakteriologik tekshirildi va qiyoslandi.

**Kalit so‘zlar.** o‘tkir respirator virusli infeksiya, O‘RVI, *Staphylococcus aureus*, *Streptococcus pneumoniae*, *Haemophilus influenzae*, *Candida albicans*, ikkilamchi infeksiya,

**Kirish.** Sovuq mavsumlar bo‘lgan kuz, qish va erta bahor oylari uchun mavsumiy bo‘lgan gripp, paragripp adenovirusli, RS - virusli va boshqa tumov kasalliklari uchrashining ortishi, bu bemorlarning kamida 5 - 10 foizi holatlarida ikkilamchi infeksiyalarning rivojlanishi kuzatilmoqda. Bunday o‘tkir respirator virusli infeksiyalar nafas yo‘llarining shilliq qavatlarining butunligini buzib, himoya to‘siqlarini zaiflashtiradi. Bu holat shu joyda doimo uchrab turuvchi shartli patogen bakteriya va zamburug‘larning shu to‘qimaga kirib borishini osonlashtiradi. Xususan bakteriya vakillardan: *Staphylococcus aureus*, *Streptococcus pneumoniae*, *Haemophilus influenzae*; Zamburug‘lardan - *Candida albicans* eng ko‘p uchraydigan ikkilamchi infeksiyalardandir. O‘tkir respirator virusli infeksiya (O‘RVI) kasalliklari ko‘pincha 6-8 kun davom etadi, ammo ular zararlagan shilliq qavatlarga kirib ko‘paygan ikkilamchi infeksiyalarning qo‘shilishi oqibatida sinusit, bronxit, pnevmoniya, otit kabi bir qancha kasalliklar rivojlanadi. Bu infeksiyalar bir necha haftalab kasallikning cho‘zilishiga yoki salbiy asoratlar kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

2020-2021 yillarda KOVID-19 pandemiyasi davrida ikkilamchi infeksiya, ayniqsa pnevmoniya bilan kasallanishning ko‘payishi kuzatildi. 2022-2023 yillarda kasallanish darajasi asta-sekin kamayib borsada, ammo hali ham pandemiyadan oldingi darajadan yuqoriligicha saqlanib qolmoqda.

**Maqsad:** O‘tkir respirator virusli infeksiya (O‘RVI) bilan kasallan bemorlarning nafas yo‘llarida uchraydigan ikkilamchi infeksiyalar manzarasini aniqlash.



**Material va uslublar:** Samarkand Davlat Tibbiyot Universitetining davolash, tibbiy pedagogika va pediatriya fakultetida tahsil olayotgan, o'tkir respirator virusli infeksiyalari bilan og'riqan 174 nafar talabalarining tomog'idan surtma olinib bakterioskopik va bakteriologik tekshirishlar o'tkazildi.

Bakterioskopik tekshirish uchun surtmalar Gram, sil - Nelson, Neysser usullarida bo'yaldi va immersion ob'ektivli mikroskopda tekshirildi.

Bakteriologik tekshirish uchun steril tamponlar yordamida olingan surtmalar Saburo, shakarli, qonli, oziq muhitlariga ekildi.


O'RVI bilan kasallangan 174 nafar talaba (tajriba guruxi sifatida) va kasallanmagan (sog'lom) 30 nafar talaba (qiyoslash uchun nazorat guruhi) burun bo'shlig'idan surtma olinib, mikroskopik, bakteriologik tekshirildi.

Termostat da 37°S da 1-3 sutka o'stirilgandan sung ulardan surtmalar tayyorlanib morfologik xususiyatlari va oziq muxdtlardagi kultural xususiyatlari organilib identifikatsiyalandi.

**Olingan natijalar:** O'RVI bilan kasallangan talabalar og'iz bo'shlig'idan olingan materiallardan ko'p miqdorda oq, sariq stafilakokklar (75%), streptokokklar (33%), pnevmokokklar (13%), kandida zamburug'lari (21 %) va boshqa shartli patogen mikroblar ko'plab o'sib chiqdi.

#### 1-rasm

**O'RVI bilan kasallangan va sog'lom odamlar nafas yo'llaridagi ikkilamchi infeksiyalar qiyosi.**



Sog'lom talabalardan olib ekilgan oziq muhitlarda kam miqdorda tillarang stafilakokk (12%), gemolitik streptokokklar (9%), ko'plab peptokokklar (65%) va diplokokklar (48%), difteroidlar (52%) hamda veylonelalar (31 %), achitqisimon zamburug'lar (41 %) o'sib chikdi.

**Xulosa:** O'RVI bilan kasallangan 35 ta talabalardan olingan materiallardan ko'p miqdorda oq, sariq stafilakokklar (75%) va streptokokklar (33%) ikkilamchi infeksiya tarzida uchrasa, sog'lom talabalar nafas yo'llarida bu mikroorganizmlar 4



- 5 barobar kam (12 va 9%) uchrashi aniqlandi.

#### Adabiyotlar:

1. Indiaminov, S. I., & Rasulova, M. R. (2018). FEATURES OF FRACTURES OF BONES OF A NOSE IN PRACTICE FORENSIC MEDICAL EXAMINATION. *Russian Journal of Forensic Medicine*, 4(3), 24-27.
2. Naimova, Z. S., & Shayqulov, H. S. (2023). KIMYO ZAVODIGA YAQIN HUDUDLARIDA YASHOVCHI BOLALAR VA O 'SMIRLARDAGI ANTROPOMETRIK KO 'RSATGICHLAR. *GOLDEN BRAIN*, 1(5), 59-64.
3. Ubaydullaevich, N. D., & Shodievich, S. H. (2023). IMMUNOLOGIYA FANINI O 'QITISHDA LOYIHALASH TA'LIMINING SAMARDORLIGI. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 1(8), 53-56.
4. Ubaydullaevich, N. D., & Shodievich, S. H. (2023). IMMUNOLOGIYA FANINI O 'QITISHDA INSIDENT INTERFAOL USULINI QO 'LLASH. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 1(8), 57-59.
5. Индиаминов, С., & Расулова, М. (2019). Экспертная оценка механических повреждений органа слуха в практике судебно-медицинской экспертизы. *Журнал проблемы биологии и медицины*, (1 (107)), 152-153.
6. Нарзиев, Д. У. Течение острой пневмонии у детей раннего возраста в зависимости от выделенной микрофлоры / Д. У. Нарзиев, Х. Ш. Шайкулов. — Текст : непосредственный // Экономика и социум. — 2024. — № №2 (117).
7. О гидролизе крахмала в желудке и происхождении амилолитической активности секрета желудочных желез / Д. У. Нарзиев, Х. Ш. Шайкулов, С. М. Хаитов [и др.]. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2024. — № 5 (504). — С. 54-56. — URL: <https://moluch.ru/archive/504/110879/> (дата обращения: 12.02.2024).
8. Расулова, М. Р., Юлаева, И. А., & Шодиев, Ж. Х. (2023). СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ДИАГНОСТИКИ ПЕРЕЛОМОВ КОСТЕЙ НОСА. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(17), 225-235.
9. Ризаев, Ж. А., & Юсупов, М. И. (2022). ЭШЕРИХИОЗ БИЛАН КАСАЛЛАНГАН БОЛАЛАРНИ ДАВОЛАШДА АНТИБИОТИКЛАР ҚЎЛЛАНИЛИШИНING ТАШКИЛИЙ-УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ. *Экономика и социум*, (9 (100)), 561-576.
10. Сезонные колебания содержания холестерина в крови и их причина / Х. Ш. Шайкулов, Д. У. Нарзиев, С. М. Хаитов [и др.]. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2024. — № 5 (504). — С. 57-59. — URL: <https://moluch.ru/archive/504/110880/> (дата обращения: 12.02.2024).
11. Шайкулов, Х. Ш. Макро- и микроэлементный состав крови у больных аллергическим дерматитом / Х. Ш. Шайкулов, С. М. Хаитов, Б. З. Тулаев,



- Н. А. Исматова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2024. — № 5 (504). — С. 61-63. — URL: <https://moluch.ru/archive/504/110883/> (дата обращения: 12.02.2024).
12. Шайкулов, Х. Ш. Состояние свертывающей и антисвертывающей системы крови у здоровых людей / Х. Ш. Шайкулов, С. М. Хаитов, Д. У. Давлатова, С. И. Ранокуюлова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2024. — № 5 (504). — С. 59-61. — URL: <https://moluch.ru/archive/504/110881/> (дата обращения: 12.02.2024).
13. Шайкулов Хамза Шодиевич, Исокулова Мухаббат Мардановна и Шодиев Жавохир Хамзаевич. (2024). ИЧБУРУФ БЎЛМАГАН ЎТКИР ИЧАК КАСАЛЛКЛАРИДА ЭШЕРИХИЯЛАРНИНГ АЖРАЛИШИ. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ НЕДАВНЫХ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАТЕЛЕЙ ТЕОРИИ*, 2 (1), 123–128. Получено с <https://uzresearchers.com/index.php/ijrs/article/view/1702>.
14. Юлаева, И. А., Шодиевич, Ш. Х., & Шодиев, Ж. Х. (2024). ЗАМБУРУФЛИ СТОМАТИТЛАРДА ЦИТОЛОГИК КЎРСАТКИЧЛАР. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 2(1), 129-135.
15. Юсупов, М., Шайкулов, Х., Одилова, Г., & Мамарасулова, Н. (2023). Раннее выявление ротавирусной инфекции у детей. *Каталог монографий*, 1(1), 1-68.